



2019 yilning yanvar oyida QURILISH ISHLARI

Qurilish ishlari hajmi
- **631,1 mlrd.so'm**

Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi
- **28,3 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
- **49,5 %**

Norasmiy sektor
ulushi
- **22,2%**

O'zbekistonda qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo'nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog'i hisoblanadi.

Joriy yilning yanvar oyida Toshkent shahrida jami 631,1mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 178,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 28,3 %ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,6 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari qurilish ishlari hajmining 49,5 %i yoki 312,4 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,1 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 22,2 % yoki 140,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,0 %ni tashkil etdi.



Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi –
178,6 mlrd.so'm
- o'sish surati -
96,6 %


Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi –
312,4 mlrd.so'm
- o'sish surati -
114,1 %

Norasmiy sektor

- hajmi –
140,1 mlrd.so'm
- o'sish surati –
91,0 %

Yanvar oyida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 63,2 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 20,7 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 16,1 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko'paydi.

Yanvar oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 23,0 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan

1,0 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 41,9 % (3,7% punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 35,1 %ni (15,0 % punktga kamayish) tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 70,0 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 30,0 % (3,9 % punktga ko'payish) ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish

ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi va 4,7 %ni tashkil etdi. Qolgan 95,3 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga ko'paydi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



■ Yirik pudrat tashkilotlari
 ■ Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar
 ■ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 49,5% tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5% punktga ko'paydi.


Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, jami qurilish ishlaridagi ulushi 28,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 19,6 %i

to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi.



2019 yil yanvar oyida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)



- Davlat mulki
- Fuqarolar xususiy mulki
- Qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulki
- Boshqa mulkchilik shakllari




Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 25,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga

oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,0 foizni tashkil qildi ya'ni 2018 yil yanvariga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 606,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,0 foizni (2018 yil yanvariga nisbatan 0,9 % punktga kamayish) tashkil qildi.


Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Shayxontoxur (tumandagi qurilish hajmining 74,1%ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,9 % punktga qurilish ishlari kam bajarilgan) va Mirobod (mos ravishda, 67,1 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 % punktga qurilish ishlari ko'p bajarilgan) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Yashnobod tumanida kuzatildi – 1,5 %. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – tumandagi jami qurilish ishlarining 98,5 %i.


Tumanlarda qurilish ishlarining o'lish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'lish surati Chilonzor tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'lish sur'ati 104,9 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 98,0 %ini tashkil qiladi.




Tuman kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



Toshkent shahrining yuqori o'rish sur'atga – 103,1 % ko'rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sirg'ali” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo'lida elektro poyezdlar uchun temir yo'l qurilishi;
- Ko'ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navruz” istirohat bog'ining qurilishi;
- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd. so`m)



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

B. Shoimqulov
(0371) 230-88-18